

O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ASARIDA URUSH  
HODISASINING TALQINI

**Z.Tojimatova**

*FDU o'qituvchisi*

**Sh.Jo'raxoldorova**

*FDU talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asari obrazlar tavsifi, asardagi "urush voqeligi" talqini muhokama qilingan va o'zbek ayolining cheksiz sabr-bardoshi e'tirof etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *obraz, pafos, insonparvarlik, personaj, fojaviylik, realistik tasvir.*

**KIRISH**

O'tkir Hoshimov so'z san'atkori, elimiz ardoqidagi yozuvchilardan biridir. Adibning barcha asarlari nafaqat o'zbek kitobxonlari balki boshqa xalqlar tomonidan ham sevib mutolaa qilinadi. "Dunyoning ishlari", "Qalbingga quloq sol", "Nur borki, soya bor", "Tushda kechgan umrlar" kabi qissa va romanlari millionlab insonlar qalbidan joy olib ulgurgan.

Shunday durdona asarlardan biri bo'lgan "Ikki eshik orasi" romanidir. Ushbu asar 1986-yilda yozilgan bo'lib, Toshkent shahridagi qishloqdardan birida urush davrida sodir bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Romanda insonlarning turfa taqdirleri va inson umrining qanchalik murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlangan. Roman urushdan oldingi va urush davridagi voqealar bilan boshladib, 1966-yilgi Toshkent zilzilasi sodir bo'lgan davrda tugaydi. Asar kompazitsion jihatdan orginaldir. Yetti qism, qirq yetti bobdan tashkil topgan va to'qqizta personaj tomonidan hikoya qilinadi. Adib ularni shu darajada bir-biriga bog'laydiki, voqealar zanjiri buzilmaydi. Natijada romanda muayyan ichki yaxlitlik hosil bo'ladi.

"Ikki eshik orasi" romanida yozuvchi birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni qoralaydi, uning g'ayri insoniy muhiyatiga urg'u beradi. Romanning asosiy pafosini urush voqeligi har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, qalblarida ochmas dog' qoldirgani tashkil etadi. Asar obrazlari orqali adib barcha oddiy insonlarda uchraydigan fazilatlar - vatanparvarlik, mardlik, sabrlilik va matonatni ko'rsatib bergan. Asar qahramonlari turfa xilligi bilan odamni ajralib turadi va qiziqtirib qo'yadi.

Asardagi Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib obrazlari o'z individual qiyofasiga ega. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanning ko'rki hisoblanadi. Uning insonparvarligi, jonkuyarligi, odamlar orasida qozongan obro-e'tibori, chidamliligi har bir kitobxon xotirasida muhrlanadi. U donishmand, hayotni past-balandini ko'rgan o'zbek qariyalarining umumiy qiyofasidir. U odamlarga baho berayotganda xalqona "belida belbog'i bo'lishi kerak" iborasidan foydalanadi. Atrofidagi odamlarga odamiyligi, sadoqati, mardligi va ezgu amallariga qarab baho beradi.

Romandagi ayol obrazlar ham o'zgacha ifodalangan bo'lib, ulardan Qora amma o'ziga xos tabiati bilan ajralib turadi. Bu obraz o'zbek ayoli va o'zbek onalarining tipik vakilidir. Buni uning soddaligi, mehribonligi, bardoshliligi va jafokashligidan payqash mumkin. U boshiga tushgan barcha ko'ngilsizliklar va ko'rguliklarni yengishga o'zida kuch topa oladi. Hatto yagona ko'zini oq-u qarosi bo'lgan farzandining dog'iga ham sabr-toqat ila bardosh beradi. Bolaligida asrab olgan, qizidek bo'lib qolgan, keyinchalik esa o'g'li Kimsanning bo'lajak rafiqasi, o'zining bo'lajak kelini bo'lmish - Robiyani ukasi Shomurodga va uning o'gli Muzaffarga joni achigani tasvirlarida o'zbek ayolidagi cheksiz mehr va shavqat tug'ularini ko'rishimiz mumkin.

Asarning yana bir o'ziga xos jihati - bu urush voqeligining ifodalanishi. Ko'plab filmlarda, kinolarda ko'rganimizdek daxshatli va vahimali talqin bu asarga yot. Buni, hattoki, yozuvchining o'zi ham "Mashaqqatli safar" nomli avtobiografik asarida ta'kidlab o'tadi: "...Oyim bir gapni ko'p aytardi: " Sen tug'ilganingda qiyomat qoyim bo'lgan edi. O'ris xotinlari urush boshlanibdi deb, deb yig'lagan, men - ammamning buzog'iga hayron bo'lgandim. Urush allaqayoqda bo'layotibdi-yu, bular nega dod soladi, degandim. Keyin aqlim yetdi". "Ikki eshik orasi" romanida Qora Amma ham urush haqidagi xabarni shunday qabul qiladi. O'g'li Kimsan frontga ketmoqchi bo'lganidan keyingina vahimaga tushib qoladi. Ba'zi do'stlarim roman qo'lyozmasini muhokamasida "urush boshlangani haqidagi xabarni bu qadar soddalashtirib tasvirlamaslik kerak edi", degan mulohazani aytdi...."

Bundan anglashiladiki, urush daxshatini o'zbek xalqi toki uni ofatiga uchramaguncha qabul qila olmagan. Ularning o'y-u xayollarida bu falokatning zarrasi ham o'tmagan. O'ylab ko'ring, agar ular bu daxshatni hatto tushunishmagan bo'lsa, qanday qilib qabul qila olishdi, qanday sabr qila oldi. Turmush o'rtog'ini, otasini, amakisini, o'g'lini bu daxshat oz domiga tortmadimi?! Bunday ko'rguliklarni ular qanday his eta oldi? Albatta, bu hammasi ularni bitmas-tuganmas sabri-bardoshiga borib taqaladi. Shunday og'ir kunlarda ham ular o'zlarini yo'qotib qo'yishmadi. Bu kabi voqealar talqinida mehnatkash, tanti, va nekbin tabiatli o'zbek xalqi namoyon bo'ladi.

#### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asarda urush va urushdan keyingi qishloq hayoti, urushning barcha og'irliklari, paxlavondek o'g'illarini urush og'ziga jo'natgan bardoshli onalar qismati, chimildiq ko'rmasdan yori firoqida ado bo'lgan kelinchaklar taqdiri, farzandlari o'rniga og'ir mehnat qilgan chol-u kampirlar qismati, urushning tugagandan keyingi og'riqli asoratlari va o'zbek xalqining donishmand bobo va momolari qiyofasi mohirona tasvirlangan. Shu bilan bir qatorda, boshqa asarlardan farqli urush voqeligi o'zgacha ifoda etilgan. Bu ham O'tkir Hoshimovning ijodiy uslubining muhim jihatlaridandir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Ahmad, Said. "Ikki eshik orasi" romani haqida
- 2.. Hoshimov, O'. (2013). Ikki eshik orasi. Roman.

3. Hoshimov, O'. (2009). Sakkizinchi mo'jiza. Toshkent
4. Dusenboyev, O. "Ikki eshik orasi" romani haqid.
5. Sharafiddinov, O. "Ikki eshik orasi" romani haqida
6. Ahmad, Said. "Ikki eshik orasi" romani haqida
7. Hoshimov O'. Mashaqqatli safar. Toshkent